



PEDAGOGIK KONFLIKTOLOGIYADA EMOTSIONAL INTELLEKTNING AHAMIYATI

**Sayfiddinova Dilrabo Otabek qizi,
Andijon davlat pedagogika instituti
pedagogika yo'nalishi 3-bosqich talabasi**

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada pedagogik konfliktlar va emotsional intellektning o'qituvchilik faoliyatidagi ahamiyati, uning pedagogik jarayonlarga ta'siri, pedagogik nizolarni hal qilishda o'qituvchi emotsional intellektning roli hamda pedagogik nizolarni hal qilishda psixologik tayyorgarlik ko'nikmalarini oshirish haqida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: pedagogik konfliktologiya, emotsional intellekt, nizolar, psixologik salohiyat, pedagogik mahorat, perseptiv qobiliyat, ijtimoiy ko'nikmalar, ta'lim jarayoni.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется значение педагогических конфликтов и эмоционального интеллекта в преподавании, его влияние на педагогические процессы, роль эмоционального интеллекта педагога в разрешении педагогических конфликтов, а также развитие навыков психологической подготовки к разрешению педагогических конфликтов.

Ключевые слова: педагогическая конфликтология, эмоциональный интеллект, конфликты, психологический потенциал, педагогическое мастерство, социальные навыки, образовательный процесс.

ABSTRACT

This article analyzes the importance of pedagogical conflicts and emotional intelligence in teaching, its impact on pedagogical processes, the role of a teacher's emotional intelligence in resolving pedagogical conflicts, and the development of psychological preparation skills in resolving pedagogical conflicts.

Keywords: pedagogical conflictology, emotional intelligence, conflicts, psychological potential, pedagogical skills, social skills, educational process.

KIRISH. Konflikt har bir inson hayotiga aloqador bo'lgan o'ziga xos ja'rayon bo'lib, hech bir inson o'zini komil ishonch bilan konfliktli vaziyatlardan muhofaza qilinganman deb ayta olmaydi. Konfliktlar inson hayotining ajralmas qismi hisoblanadi[1: b 6]. Darhaqiqat, tobora jadallashib borayotgan davrda, raqamli



texnologiya va axborotlar bilan uyg'unlashgan avlodlarga bo'layotgan turli axborot-kommunikativ, ma'naviy va ijtimoiy ta'sirlarning kuchayib borayotgani, zamonaviy jamiyatlarda yashash tarzining murakkablik tomon ortib borayotganligi nafaqat ijtimoiy iqtisodiy qolaversa, ta'lim jarayonlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmayapti. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-fevraldagi PQ-4884-son qarorida pedagoglarning kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarini, jumladan, emotsional barqarorlik, kommunikativlik va muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida urg'u berilgan. Bu esa pedagogik konfliktlarni hal qilishda emotsional intellektning ahamiyatini yanada oshiradi. Pedagogik konfliktologiya ta'lim jarayonida yuzaga keladigan nizolarni tahlil qilish va ularni bartaraf etish usullarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Bu soha o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilashga, jamoada sog'lom psixologik muhit yaratishga yordam beradi. Pedagogik nizolar o'quv jarayonining tabiiy qismlaridan biri bo'lib, ular turli sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin. Misol uchun, o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlar, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi noaniqliklar, yoki ta'lim metodlari va uslublari bilan bog'liq tafovutlar nizolarni keltirib chiqarishi mumkin. Nizo — bu ikki yoki undan ortiq tomonning o'z maqsadlari, manfaatlari yoki ehtiyojlarida to'qnashuvga duch kelishi. Ta'lim muhitida esa, bu o'qituvchi va o'quvchi, o'quvchilar o'rtasida yoki hatto o'qituvchining o'zaro aloqalarida paydo bo'lishi mumkin. Pedagogik konfliktologiyaning asosiy vazifalaridan biri — bu nizolarni ijobiy yo'llar bilan hal qilishni ta'minlashdir. Bunda, o'qituvchining pedagogik malakasi va yuqori darajadagi emotsional intellekti muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchining o'zini boshqarish qobiliyati, his-tuyg'ularini tushunishi va boshqalarning holatini sezishi, pedagogik jarayonda yuzaga keladigan nizolarni bartaraf etishda juda katta rol o'ynaydi. Pedagogik konfliktologiyaning o'ziga xos xususiyatlaridan biri — u faqatgina nizolarni bartaraf etish bilan cheklanmaydi, balki o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi salbiy emotsiyalarni kamaytirish, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish va muomala madaniyatini shakllantirishga ham yo'naltirilgan. Buning uchun, pedagogik konfliktologiya o'qituvchidan faqat metodik bilimlarni emas, balki psixologik ko'nikmalarni ham talab etadi[2:b 20] Konfliktlarni boshqarishda o'qituvchining emotsional intellekti muhim o'rin tutadi. Emotsional intellekt — bu o'z tuyg'ularini anglay olish, boshqarish, boshqalarning holatini his qilish va ular bilan samarali muloqot qura olish qobiliyatidir. O'qituvchida yuqori darajadagi emotsional intellekt bo'lsa, u nizoli vaziyatlarga ijobiy yondashadi, zo'ravonlikdan yiroq usullar bilan muammoni hal etishga intiladi. Bunday yuqori saviyaga ega



boʻlgan pedagoglar faoliyatida yuz berishi mumkin boʻlgan nizoli vaziyatlar juda kam foizni tashkil etadi, chunki oʻqituvchi avvalo perseptiv qobiliyatini ishga solgan holda, sinfning emotsional holatini idrok eta oladi va shu asosida dars shakli va yoʻnalishini toʻgʻri tanlay oladi. Oʻqituvchi oʻquvchilarga nisbatan muayyan holatda tursagina (bu holat ularning yosh xususiyatlariga qarab turlicha boʻladi) pedagogik taʼsir koʻrsatishni muvaffaqiyatli amalga oladi. Taniqli amerikalik psixolog Daniel Goleman oʻzining “Emotional Intelligence” asarida “Emotsional koʻnikmalari yaxshi rivojlangan insonlar, odatda, hayotda baxtli va samarador boʻladilar. Ular oʻz salohiyatini namoyon eta oladigan fikrlash odatlarini egallagan boʻladilar. Aksincha, hissiyotlarini boshqara olmaydiganlar ichki kurashlar bilan band boʻlib, bu ularning diqqatli ishlash va tiniq fikrlash qobiliyatiga salbiy taʼsir qiladi.” [3:b 36] Golemanning fikricha, oʻz his-tuygʻularini nazorat qila olgan oʻqituvchilar dars jarayonida yuzaga keladigan nizolarni tinch va oqilona hal qila oladi. Bu esa, pedagogik konfliktologiyaning asosiy ustunlaridan biri boʻlib xizmat qiladi. Bundan xulosa qilinadiki, oʻqituvchi emotsional intellektining yuqoriligi uning ish faoliyatida samarador natijani taʼminlashi bilan birga, taʼlim jarayonida yuz berishi mumkin boʻlgan qarama-qarshiliklarni qiyinchilik va psixologik zoʻriqishlardan holi boʻlgan holda hal qilish koʻnikmasini rivojlanganini koʻrsatadi va bunday turdagi oʻqituvchilarni mahoratli pedagog darasiga chiqara olamiz desak mubolagʻa boʻlmaydi. Oʻqituvchi yuz berishi mumkin boʻlgan nizoli vaziyatni oldindan idrok qilishi, uning sodir boʻlishlilik darajasini pasaytirishi yokida butunlay bartaraf etishida uning nafaqat pedagogik balki psixologik bilimlarining yuqoriligi ham ahamiyatlidir. Bunda, oʻqituvchidan aktyorlik qobiliyati talab etiladi, yaʼni Uilyam Shekspirning “pedagog sahnadagi yolgʻiz aktyordir” kabi fikri bunga yaqqol dalil boʻla oladi. Oʻqituvchi oʻzining birgina emotsiyasi: kulib qarashi, kinoya qilishi, hazil qilishi, jahl bilan murojaat qilishi, baʼzida chalgʻituvchi omillarga bosiqlik bilan oʻz hissiyotlarini bildirishi dars muhiti hamda oʻquvchilarning pedagogga boʻlgan munosabatlarini tubdan oʻzgartirib yuborishi mumkin. Pedagogik jarayonda yuzaga keladigan konfliktlar koʻp hollarda notoʻgʻri muloqot, tushunmovchilik yoki oʻqituvchi-oʻquvchi oʻrtasidagi emotsional ziddiyat natijasida kelib chiqadi. Quyidagi tavsiyalar oʻqituvchilarga bunday vaziyatlarni sogʻlom emotsional muhitda hal qilishga yordam beradi: 1. Oʻz his-tuygʻularini anglash va boshqarish: Oʻqituvchi avvalo oʻz emotsiyalarini anglay olishi va ularni nazorat qilishni oʻrganishi lozim. 2. Empatiya koʻrsatish: Oʻqituvchi oʻquvchining holatini tushunishga intilishi zarur. Bu orqali oʻquvchida oʻzini tushunilgan va qadrlangan his qilish shakllanadi. 3. Ijobiy muloqot va muomala madaniyati: Oʻqituvchi tanbeh

berishni emas, balki muammoni hal qilishga qaratilgan muloqotni tanlash lozim. 4. Individual yondashuv va sabr: Har bir o'quvchining shaxsiyati turlicha bo'lganidek, konfliktga sabab bo'ladigan omillar ham farqlidir. O'qituvchi bunga tayyor bo'lishi zarur. 5. Konfliktni vaqtida hal qilish: Konfliktni cho'zmaslik, uni vaqtida, lekin to'g'ri uslubda hal qilish muhimdir. 6. Refleksiya qilish: Har bir vaziyatdan saboq olish, o'qituvchining emotsional o'sishini ta'minlaydi.

XULOSA. Pedagogik konfliktlar ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, ular o'qituvchi va o'quvchi, o'quvchilar o'rtasida yoki o'qituvchi jamoasida yuzaga kelishi mumkin. Bunday vaziyatlarda emotsional intellektdan samarali foydalanish, ya'ni o'z va boshqalarning his-tuyg'ularini anglash, boshqarish va unga mos ravishda harakat qilish, nizolarni bartaraf etishda muhim omil hisoblanadi. Dalillar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining emotsional barqarorligi, empatiya qobiliyati, muloyim muloqot uslubi va konfliktni chuqur anglay olish salohiyati darsdagi psixologik muhitni yaxshilaydi hamda ijobiy ijtimoiy aloqalar shakllanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, emotsional intellekt asosida yondashuv o'quvchilarda o'zini anglash, o'zaro hurmat va mas'uliyatni his qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa nafaqat konfliktlarning oldini olishga, balki o'quvchilarni sog'lom jamiyat a'zosi sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu bois, har bir zamonaviy pedagog o'z kasbiy faoliyatida emotsional intellekt kompetensiyalarini shakllantirishi va doimiy ravishda rivojlantirib borishi dolzarb vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Goleman, D. (1995). Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. New York: Bantam Books.
2. Ahmedova, M.T. (2020). Pedagogik konfliktologiya. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti.
3. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirligi- T:"Yangi nashr",2019 Shodiyev R.D.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-fevraldagi PQ-4884 son qarori – "Pedagog kadrlar tayyorlash, malakasini oshirish va ularning mehnatini munosib rag'batlantirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida".
5. <https://lex.uz/ru/docs/6373183>